



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Navoiy viloyati

210100 Navoiy sh. Zarapetyana-10, Tel-Fax (436)- 220-50-01. navoi.ex@mail.ru www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Sultonov Zafar Zokirovich

Sana: 19-03-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 34264

Obyekt nomi «Navoiy viloyati Nurota tumani markazidagi «Nurobod» MFY ga qarashli «Nurli» yo'l ko'chasing me'moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish.»

Buyurtmachi - Navoiy viloyati hokimligi «Yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyasi.

Bosh loyihachi - «Real dor proekt» MCHJ.

Litsenziya АЛ-000373-sonli 30.11.2019yilda berilgan, amal qilish muddati cheklamagan.

Moliyalashtirish manbai - Byudjet mablag'lari.

Bosh pudratchi - Tender savdolari asosida aniqlanadi.

Qurilish turi Mukammal tamirlash.

Murojaat raqami: № 33725

1. Loyihalash uchun asos

1.1. Navoiy viloyati Nurota tumani markazidagi «Nurobod» MFYga qarashli «Nurli» yo'l ko'chasing me'moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish ishchi loyihasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvardagi PQ-98-sonli qaroriga asosan tuman markazlari va shaharlarning me'yoriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish ishlari uchun va Navoiy viloyati hokim o'rinnbosari B.Bobomurodov tomonidan 2022 yilda tasdiqlangan Navoiy viloyatiga ajratilgan mablag'lar xisobidan amalga oshiriladigan ishlar manzilli ro'yxatiga asosan bajarilgan.

1.2. Navoiy viloyati Nurota tumani markazidagi «Nurobod» MFYga qarashli «Nurli» yo'l ko'chasing me'moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish ishchi loyihasi va smeta xujjalarni tayyorlash uchun texnik topshiriqnomalar Navoiy viloyati hokimligi «Yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyasi direktori A. Turdiyev tomonidan 2022yilda tasdiqlangan.

1.3. Navoiy viloyati Nurota tumani markazidagi «Nurobod» MFYga qarashli «Nurli» yo'l ko'chasing me'moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish uchun ishlataladigan qurilish mahsulotlarini tashish masofasini aniqlash dalolatnomasi 10.01.2022yilda tuzilgan.

1.4. Navoiy viloyati Nurota tumani markazidagi «Nurobod» MFYga qarashli «Nurli» yo'l ko'chasing me'moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish ishchi loyihasi uchun bajariladigan ishlar hajmi qaydnomasi, Navoiy viloyati hokimligi «Yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyasi direktori A. Turdiyev tomonidan 2022yil tasdiqlangan.

1.5. Elektr tarmoqlariga ularish uchun "Nurota elektr tarmoqlari korxonasi" Aksiyadorlik jamiyati tomonidan 03.02.2022yilda berilgan 02-42-sonli texnik shart.

- 1.6. Hududgaz Navoiy gaz ta'minoti filiali "Nutotatumangaz" gaz ta'minoti bo'liminingning 02.03.2022-yildagi 10-sonli texnik xulosasi.
- 1.7. "O'zbektelekom" Aksiyadorlik jamiyatining 03.07.2022-yildagi 40-36/81-sonli texnik sharti.
- 1.8. "Navoiy suv ta'minoti" MCHJ Nurota tuman bo'limining 04.03.2022-yildagi 18-sonli texnik sharti.
- 1.9. Navoiy viloyati Nurota tumani hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022-yilning 5-mart sanasidagi 01-15/48-sonli texnik sharti.
- 1.10. Navoiy viloyati ichki xo'jalik avtomobil yo'llari 2022 yilda qurish, rekonstruksiya va to'la tamirlash ishlariда loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun taklif etiladigan ishchilarni ish haqqi, mashina mexanizmlar, transport xarajatlari va asfalta beton qorishmasi qiymati bo'yicha tuzulgan kelishuv bayonnomasi Navoiy viloyati hokimligi «Yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyasi direktori A. Turdiyev tomonidan 2022yil 15-yanvarda tasdiqlangan.
- 1.11. Loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish uchun 25.02.2022yilda 01-06/544-sonli buyurtmachi tomonidan berilgan dastlabki malumotlar. (Ilova 4 varoqda Mashina mexanizmlar, mashina soat va qurilish materiallari narxlari).

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

- 2.1. Loyiha-smeta xujjatlarini ekspertizadan o'tqazish uchun 21.02.2022yildagi 01-07/483-sonli buyurtmachining xati.
- 2.2. Navoiy viloyati Nurota tumani markazidagi «Nurobod» MFYga qarashli «Nurli» yo'l ko'chasining me'moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish ishchi loyihasi va smeta hujjatlari.
- 2.3. Navoiy viloyati hokimligi «Yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyasi direktori A.Turdiyev tomonidan 2022yilda tasdiqlangan ishlar hajmi qaydnomasi.
- 2.4. Buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan ob'ektning boshlang'ich smeta bahosi QQS bilan 2 747 414,622 ming so'mni tashkil qiladi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Yo'lning rejasi.

Navoiy viloyati Nurota tumani markazidagi «Nurobod» MFYga qarashli «Nurli» yo'l ko'chasining me'moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish ishchi loyihasida yo'lning loyihalanayotgan qismining umumiy uzunligi – 1670 metrni tashkil qiladi, loyihada yo'l qatnov qismining kengligini 5m, yo'l cheti kengligi – 1m qilib qurish ishlari amalga oshirish rejalashtirilgan. Ta'mirlanadigan ob'ektda piyodalar yo'lagi yangidan 2,25 m qurish ishlari ishchi loyiha tarkibiga kiritilgan.

Yo'lning ko'ndalang kesimi.

Ta'mirlanayotgan yo'l mahalliy ahamiyatdagi yo'llar toifasiga mansub.

Loyihaviy yo'l quyidagicha geometrik o'lchamlarga ega:

- Harakat tasmalarining soni - 2ta.
- Harakat tasmasining kengligi - 2,5M.
- Yo'l yoqasidagi chetki asfaltbeton tasma kengligi - 2x0,5M.
- Yo'l yoqasidagi chetki qum shag'al tasma kengligi - 1x1M.
- Termirbeton latok kengligi - 1x0.6m.

- Piyodalar yo'lagi kengligi - 2,25m.

Qatnov qismining ko'ndalang qiyaliklari temirbeton latok tomonga qarab - 15%. Yo'l yoqasidagi chetki qum shag'al tasma qismining ko'ndalang qiyaliklari bir tomonga qarab - 35%.

Yo'Ining chap tomoniga kengligi 2,25m bo'lgan piyodalar yo'lagidan so'ng elektr yoritish ustunlari o'rnatilishi ko'zda tutilgan.

Yo'l to'shamasi konstruksiysi.

Mayda donali issiq zich a.beton qorishmasidan $H=5$ sm. qalinlikda qoplama qurish (Tip-B, Marka-1 GOST 9128-2013).

QSHA sidan $H=15$ sm. qalinlikda asos yotqizish (Buzib olingan mavjud yo'l qora qoplamasidan foydalangan holda).

QSHA sidan tekislovchi qatlama yotqizish.

Yo'l chetlarini QSHA sidan $H=5$ sm qalinlikda mustahkamlash.

Tuproq ko'tarmasi - zichlangan grunt.

Piyodalar yo'lagi konstruktsiyasi

M-250 markali beton qorishmasidan $H=10$ sm qalinlikda piyodalar yo'lagi qoplamasini qurish.

PPA markali rulon materialdan nam to'sgich qatlama yotqizish.

Qumdan $H=3$ sm qalinlikda tekislovchi qatlama yotqizish.

QSHA sidan $H=12$ sm qalinlikda piyodalar va velosiped yo'lagi asosini qurish.

Tuproq ko'tarmasi zichlangan grunt

Yo'l to'shamasini qurish.

Tuproq ishlari bajarib bo'lingach, yo'l qatnov qismining zarur joylariga QSHA sidan jadvalga asosan tekislovchi qatlama yotqiziladi. Buzib olingan mavjud yo'l qora qoplamasidan foydalangan holda QSHA sidan $H=15$ sm. qalinlikda asos yotqiziladi. Asos yotqizish ishlari bajarib bulingach, asos ustidan bitum sepilib, mayda donali issiq zich asfat beton qorishmasidan $H=5$ sm. qalinlikda bir qatlama qoplama quriladi. Qoplama yotqizish ishlari mexanizatsiya usulida amalga oshiriladi. Qoplama qurish ishlari bajarib bo'lingandan so'ng yo'l yoqasi QSHA sidan $H=5$ cm qalinlikda mustahkamlanadi.

Piyodalar va velosiped yo'lagini qurish.

Piyodalar va velosiped yo'lagi o'rni qo'l kuchida tekislanaadi. QSHA sidan $H=12$ sm qalinlikda piyodalar va velosiped yo'lagi asosi quriladi. Qumdan $H=3$ sm qalinlikda tekislovchi qatlama yotqiziladi. PPA markali rulon materialdan nam to'sgich qatlama yotqiziladi. Beton qorishmasidan $H=10$ sm qalinlikda piyodalar yo'lagi qoplamasini quriladi. Piyodalar yo'lagi qurilgandan so'ng ularga kirish joylari, birikuvchi yo'llarga tutash qismlariga hamda piyodalar o'tish joylariga a/beton lotoklar ustiga metal panjaralar yasab o'rnatiladi.

Birikma yo'llarni ta'mirlash.

Ta'mirlanayotgan avtomobil yo'liga bir qancha qoplamlari yo'llar kelib birikadi. Mavjud birikma yo'llarni ta'mirlash talab qilinadigan qismlari jadval asosida hisoblab chiqilgan. Mavjud birikma yo'llar qatnov qismi qoplamasini sovuq freza yordamida 5sm. qalinlikda qirqib olinadi. QSHAsidan $H=15$ sm qalinlikda asos yotqiziladi (frezada buzib olingan maxsulotdan foydalangan xolda). Asos ustidan bitum sepilib barcha birikma ko'chalarga mayda donali issiq zich a.beton qorishmasidan $H=5$ sm. qoplama quriladi. Qoplama qurish ishlari bajarib bo'lingandan so'ng yo'l yoqasi QSHA sidan $H=5$ sm qalinlikda mustahkamlanadi. Birikma yo'llarni ta'mirlashda ish hajimlari jadval ko'rinishida loyixa tarkibiga kiritilgan. Qatnov qismi

chetida brikma yo'llarning birikish qismlarida lotokda suvlarini qochirish uchun o'lchami 325mm devor qalinligi 6mm bo'lgan metal quvur o'rnatiladi. Metall quvurlarni o'rnatish ishlari yo'lni to'la ta'mirlashda bajariladigan ishlar hajmi qaydnomasiga kiritiladi.

Sun'iy inshoatlar.

To'la ta'mirlanayotgan yo'lning ПК9+19, ПК9+53, ПК15+02 va ПК16+57 larida sug'orish ariqlari kesib o'tgan bo'lib ushbu joylarda mavjud bo'lgan suv o'tkazuvchi o'rnatilgan mavjud quvurlar yaroqsiz holga kelganligi sababli yangidan d-325x6mm bo'lgan metall quvurlarni o'rnatish ishlari ko'zda tutilgan bo'lib metal quvurlarni o'rnatish ishlari yo'lni to'la ta'mirlashda bajariladigan ishlar hajmi qaydnomasiga kiritilgan.

Sun'iy yoritish tarmoqlarini o'rnatish.

Yo'lning ПК0+00-- ПК9+20 oralig'ida o'ng tomonda mavjuda sun'iy yoritish tarmoqlarini ko'chirib qayta o'rnatish ishlari tegishli tashkilot tomonidan bajarilishi ko'zda tutilgan bo'lib, ПК9+20--ПК16+70 oralig'ida yo'l o'qiga nisbatan chap tomonga xar 40 m oraliqda 20 dona yangidan yoritish tarmog'i tayanchlari o'rnatiladi. O'rnatilgan tayanchlarga 1 donadan yoritgichlar mahkamlanadi. Tarmoqga ulanish tegishli (Nurota TETKning 02.03.2022 yildagi №01-22-100 sonli texnik shartga asosan) texnik shartlar asosida amalga oshirilgan.

Yo'lni jihozlash.

Ta'mirlanadigan yo'lida asosiy ta'mirlash ishlari bajarib bo'lingandan keyin ushbu qism bo'ylab transport vositalari harakatini tartibili tashkil qilish va harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida tegishli yo'l belgilari metall ustunlarda o'rnatilib, qatnov qismida yotiqli belgi chiziqlari (razmetka) chiziladi.

Yo'l belgilari GOST 23457-86 talablariga binoan qabul qilish kerak. Yo'l belgilari GOST 10807-78 talablariga, yo'l belgilaringin tayanchlari GOST 25458-82 va GOST 25459-82 talablariga binoan o'rnatilishi kerak.

«Ishchi loyiha» ga kiritilgan «Yo'lni jihozlash» chizmasi Viloyat IIB, Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi bilan kelishilgan holda ishlab chiqilgan.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. Loyiha elektr tarmoqlariga ulanish uchun "Nurota elektr tarmoqlari korxonasi" Aksiyadorlik jamiyatni tomonidan 03.02.2022yilda berilgan 02-42-sonli texnik shartga asosan bajarilgan.

Tarmoq kuchlanishi - 380/220V.

Istemol quvvati - 25kVt.

Elektr ta'minoti ishonchlilikiga ko'ra - III toifali iste'molchilarga tegishli.

Kunning qorong'i paytalarida hududda harakatlanuvchi transportlar va piyodalarining havfsizligini ta'minlash maqsadida qatnov qismining chap tomoniga piyodalar yo'lagidan keyin 20 dona sun'iy yoritish tarmog'i ustuni o'rnatiladi. Yoritish tarmog'i ustuning har biriga yo'l tomoniga bir dona 150W va piyodalar yo'lagi tomoniga 100W quvvatga ega bo'lgan yoritish chiroqlari o'rnatish loyixalashtirilgan.

Ulanish nuqtasi loyihada 1004/250 tpdan shkaf o'rnatib ulanish ko'zda tutilgan bo'lib unga ASKUE hisoblagich ornatalishi ko'zda tutilgan.

Aporaning o'lchami - 12 metr bir qanotli.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Ishchi loyiha hujjatlari kelishilgan:

- Navoiy viloyati hokimligi «Yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyasi bilan;
- Navoiy viloyati Nurato tumani xokimiyati bilan.
- Navoiy viloyat IIB yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi bilan.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Smeta qismi.

Navoiy viloyati Nurota tumani markazidagi «Nurobod» MFYga qarashli «Nurli» yo'l ko'chasining me'moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish ishchi loyihasi va smeta hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11 iyun 2003 yildagi 261-sonli qarori va amaldagi normativ hujjatlarga asosan ishlab chiqilgan. Loyiha-smeta hujjatlari ABS4-UZ (2021-2) dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Smeta hujjatlari Navoiy viloyati ichki xo'jalik avtomobil yo'llari 2022 yilda qurish, rekonstruksiya va to'la tamirlash ishlarida loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun taklif etiladigan ishchilarni ish haqqi, mashina mexanizmlar, transport xarajatlari va asfalta beton qorishmasi qiymati bo'yicha tuzulgan kelishuv bayonnomasi va O'zbekiston Respublikasi qurilish va ishlab chiqarishda qo'llaniladigan material-texnik resurslarining amaldagi narxlar «Katalogi» (3-kvartal 2021yil) dan foydalanib ishlab chiqilgan va qurilish materiallarini viloyatning ishlab chiqaruvchi korxona va tashkilotlarning o'rtacha narxlari.

Navoiy viloyati Nurota tumani markazidagi «Nurobod» MFYga qarashli «Nurli» yo'l ko'chasining me'moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish ishchi loyihasi va smeta xujjatlari, loyiha topshirig'iga asosan to'liq bajarilgan.

6.2. Ekspertiza tomonidan barcha taqdim etilgan hujjatlar to'liq ko'rib chiqilgan. Ko'rib chiqish vaqtida aniqlangan kamchiliklar elektron lokal xulosalarda aks etgan va loyixachi hamda buyurtmachi manziliga yuborilgan, taklif va talablar Buyurtmachi va loyiha tashkiloti tomonidan qisman bartaraf etilgan.

6.3. Navoiy viloyati Nurota tumani markazidagi «Nurobod» MFYga qarashli «Nurli» yo'l ko'chasining me'moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish ishchi loyihasi va smeta hujjatlari, buyurtmachi taqdim qilgan boshlang'ich taklif bahosi QQS bilan 2 747 414,622 ming so'mni tashkil etgan, ekspertiza natijalariga ko'ra 81 444,123 ming so'mga kamaydi.

6.4. Navoiy viloyati Nurota tumani markazidagi «Nurobod» MFYga qarashli «Nurli» yo'l ko'chasining me'moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish ishchi loyihasi va smeta xujjatlari ekspertiza ko'riganidan keyin tavsiyaviy smeta bahosi QQS bilan **2 665 970,499** ming so'm qilib belgilandi, shundan:

- QMI - 2 308 876,776 ming so'm;
- Jihozlar - 9 358,440 ming so'm;
- QQS - 347 735,283 ming so'm;

Bundan tashqari buyurtmachining boshqa xarajatlari QQS va shaffof qurilish 0,05% bilan - 134 631,510 ming so'm.

7. Xulosalar.

7.1. Navoiy viloyati Nurota tumani markazidagi «Nurobod» MFYga qarashli «Nurli» yo'l ko'chasining me'moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish ishchi loyihasi va smeta xujjatlari belgilangan talablar darajasida bo'lib, kiyungi ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

7.2. «Bino va inshootlar kapital qurilishi jarayonida loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tartibi va tarkibi» haqidagi SHNK 1.03.01-08 ning 4.2. bandiga asosan ob'ektning taklif qilingan boshlang'ich narxi qurilishni boshlash uchun belgilangan bo'lib pudrat shartnomasini tuzish uchun asos bo'lib xizmat qilmaydi.

7.3. O'zbekiston Respublikasi qurilish va ishlab chiqarishda qo'llaniladigan material-texnik resurslarining amaldagi narxlar «Katalogi» ga kiritilmagan qurilish materiallari, ashyolari, jihozlari narxlari uchun Davlat ekspertiza boshqarmasi javobgarlik ma'suliyatini o'z bo'yning olmaydi, narxlarni shakillantirish Buyurtmachi zimmasiga yuklatiladi (funksiya regulirovaniya osushestvlyaet Zakazchik).

7.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sod qarori 1-ilova, III bob, 29-bandga asosan "Davlat ekspertizasiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachi (loyihalash jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi nuqtai nazaridan) va ishlab chiquvchi (qabul qilingan loyiha qarorlari va echimlari) zimmasiga yuklanadi.

Bosh mutaxassis: Nuraliyev Utkir Urmonovich 444451085

Ishtirokchi ekspertlar:

AXTAMOV TEMUR AXAD UGLI

НИЗОМГА
З-ИЛОВА

"ТАСДИҚЛАЙМАН"

Нурота ТЙФУК директори
Р.Норбобоев

«_____»

М.Ү

2022 йил



ТАНЛОВ ХУЖЖАТИ

Нурота ТЙФУК томонидан Нурота туман марказидаги "Нуробод" МФЙ га карашли
"Нурли" йул кучасининг мэъморий киёфасини замонавийлаштириш ва ободонлаштириш
ишларида тунги ёритиш тармокларини урнатиш.

УМУМИЙ ҚИСМ

ТАНЛОВДА ИШТИРОК ЭТИШ ТАКЛИФИ

1. Умумий холат

1.1 Ушбу танлов ҳужжатлари "Давлат ҳаридлари тўғрисида" ги Ўзбекистон Республикаси Конуни (кейинги ўринларда Конун) ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 20 февралдаги ПҚ-3550 карори талабларига мувофик ишлаб чиқилган. "Лойиҳалашдан олдин, лойиха, тендер ҳужжатлари ва шартномалар экспертизасини ўтказиш тартибини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" (кейинги ўринларда - карор).

1.2 Танлов мавзууси: Нурота ТЙФУК томонидан Нурота туман марказидаги "Нуробод" МФЙ га қарашли "Нурли" йул қучасининг мэъморий киёфасини замонавийлаштириш ва ободонлаштириш ишларида тунги ёритиш тармокларини урнатиши.

1.3. Танлов таклифида кўрсатилган нархлар чегара қийматидан ошмаслиги керак.

1.4. Ушбу қийматдан ортиқ қийматдаги таклифлар қабул қилинмайди ва кўриб чиқилмайди. Хизматларни кўрсатиш бўйича техник топшириклар танлов ҳужжатларининг техник қисмида келтирилган.

1.5 Танлов комиссияси йиғилишининг шакллари - онлайн.

2 Танлов ташкилотчилари

2.1 Буюртмачининг номи –Нурота ТЙФУК
(бундан кейин "Буюртмачи" деб номланади).

2.2 Комиссиянинг ишчи органи танлов комиссияси (бундан кейин - "комиссия").

2.4 Танлов камида беш аъзодан иборат Буюртмачи томонидан тузилган танлов комиссияси томонидан ўтказилади.

3. Танлов иштирокчилари

3.1 Мулкчилик шаклидан қатъий назар ҳар қандай юридик шахслар, шу жумладан кичик бизнес субъектлари иштирок этишлари мумкин.

4.2-банда кўрсатилган юридик шахслар бундан мустасно.

4 Танловни ўтказиш тартиби

4.1 Танловда иштирок этиш учун танлов иштирокчиси:

а) танлов шартлари билан танишиш учун маъсус маълумот порталида жойлаштирилган танлов ҳужжатларининг электрон версиясини олиш (юклаб олиш);

б) танлов ҳужжатлари талабларига мувофик тендер таклифини тақдим этиш;

4.2 Иштирокчиларнинг танловда иштирок этишлари такиқланади:

кайта ташкил этиш, тугатиш ёки банкротлик боскичида бўлиш;

"Буюртмачи" билан суд ёки арбитраж холатида бўлиш; ягона реестрда виждонсиз ижрочилар; соликлар ва бошқа мажбурий тўловлар бўйича қарзлар имтиёзли солик режимини таъминлайдиган ва ёки молиявий операцияларни (оффшор зоналар) амалга оширишда маълумотни ошкор қилиш ва тақдим этишни назарда тутмайдиган штатларда ёки худудларда рўйхатдан ўтган ва банк ҳисоб ракамларига эга бўлганлар.

4.3 Буюртмачи иштирокчини сотиб олиш тартиб-таомилларида қатнашишдан четлаштиради, агар: иштирокчи тўғридан-тўғри ёки билвосита мижознинг ҳар қандай амалдаги ёки собик мансабдор шахсини ёки ходимини ёки бошқа давлат органини ҳар қандай шаклда иш ҳаки, иш таклифи ёки бошқа ҳар қандай кимматбаҳо нарсалар ёки хизматларни таклиф қилиш, бериш ёки беришга рози бўлиш, давлат ҳаридлари жараённида буюртмачининг ҳар қандай харакатларини амалга ошириш, карор қабул қилиш ёки ҳар қандай ракобат тартибини кўллаш; иштирокчи конунни бузган холда адолализ ракобат устунлиги ёки манфаатлар тўқнашувига эга

5 Танлов тили, ўлчов бирлиги.

5.1 Танлов таклифи ва иштирокчи ва буюртмачи томонидан амалга ошириладиган барча тегишли ёзишмалар ва хужжатлар ўзбек тилида бўлиши керак. Танлов таклифи ўзбек тилига аниқ илова килинган холда бўлиши керак. Танлов таклифида метрик ўлчов тизимидан фойдаланиш керак.

6. Танлов таклифи ва уни рўйхатдан ўтказиш тартиби

6.1 Порталда эълон килинган танлов иштирокчилари танлов эълонида кўрсатилган манзил бўйича эълонда белгиланган тартибда таклифлар киритадилар.

6.2 Рақобатчи: тақдим этилган маълумотлар ва хужжатларнинг ҳакиқийлиги ва тўғрилиги учун жавобгардир;

6.3 Тендер таклифи икки кисмдан иборат:

нарх кисми танлов шартларига мос келиши ва қуидаги маълумотларни ўз ичига олиши керак: маҳсулот номи, хизматларнинг қиймати, умумий микдори, тўлов шартлари, таклифнинг амал қилиш муддати ва бошқалар.

6.4 Шунингдек, иштирокчи таклифни, шу жумладан барча танлов хужжатларини тайёрлаши керак, уларни сканерлаштирилган электрон шаклда маҳсус etender.uzex.uz порталига раҳбарнинг имзоси ва муҳри билан тасдиқланган холда жойлаштириши керак.

6.5 Тижорат таклифи электрон шаклда тақдим этилади.

6.6 Техник таклиф қуидаги хужжатларни ўз ичига олиши керак: техник хужжатлар рўйхати (техник маълумотлар варакалари, фойдаланиш бўйича кўрсатмалар ва бошқалар ёки тақдим этилаётган хизматларнинг тўлик ва батафсил тавсифини ўз ичига олган бошқа хужжатлар).

6.7 Ушбу танловга илова килинган нарх таклифининг мажбурий хужжатлари мавжудлигига қўйиладиган талаблар.

6.8 Комиссия факат ушбу йўриқноманинг талабларига мувофик тайёрланган таклифлар учун жавобгардир.

7 Таклифлар бўйича танлов тартиби, уларни баҳолаш тартиби ва мезонлари

7.1 Эълонда танлов ўтказиладиган вакт сифатида кўрсатилган вакт, танлов иштирокчилари томонидан тақдим этилган танлов таклифларини баҳолаш бўйича танлов комиссияси.

7.2 Таклифларни кўриб чиқиша барча хужжатларнинг мавжудлиги ва уларнинг тўғрилиги текширилади. Тегишли хужжатлар бўлмаган тақдирда, танлов комиссияси ушбу таклифни кўриб чиқиш ва баҳолаш учун рад этишга ҳақлидир.

7.3 Танлов комиссияси танлов ғолибини аниглаш учун рад этилмаган таклифларни танлов хужжатларида кўрсатилган мезонларга караб баҳолайди.

7.4 Танлов иштирокчиси томонидан тақдим этилган хужжатларда мавжуд бўлган маълумотлар аниқланган тақдирда, танлов комиссияси бундай иштирокчини танловда қатнашишдан четлаштиришга ҳақлидир.

7.5 Таклиф Қонун, меъёрий хужжатлар ва танлов хужжатлари талабларига мос равища бўлишлари мумкин, белгиланган тартибда ишлашлари мумкин.

7.6 Танлов комиссияси агар уни тақдим этган танлов иштирокчиси Қонунда ва қарор қабул килинадиган талабларга жавоб бермаса ёки танлов иштирокчиларининг таклифи бўйича танлов хужжатлари талабларига жавоб бермаса, таклифни рад этади.

7.7 Тижорат таклифларини баҳолаш жараённида танлов комиссияси талабгорлардан уларнинг таклифларига нисбатан тушунтиришлар сўраши мумкин. Ушбу процедура белгиланган тартибда расмий равища, ёзма равища, танлов ташкилотчиси орқали амалга оширилади. Тушунтириш жараённида таклифнинг моҳиятида, шунингдек нархнинг ўзгаришига йўл қўйилмайди.

7.8 Танлов хужжатлари ва таклифида кўрсатилган мезонларга асосланиб шартномани бажариш учун енг яхши шартларни таклиф килган тендер иштирокчиси ғолиб хисобланади.